



INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026

№3

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar:  Google Scholar  Crossref  OpenAIRE  CYBERLENIKA



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

3-jild
3-son
March, 2026

February, 2026
Volume 3
Number 3

ИННОВАЦИОННАЯ
ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and
practical journal



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:

+998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullievich - i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)

Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)

Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)

Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)

Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)

Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)

Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)

Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)

Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik (Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor)

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent

Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)

Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)

Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)

Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent



ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Учредитель:

**Каршинский государственный технический
университет**

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук,
профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в
электронной форме и публикуется через
официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал
«Инновационная экономика» включён в перечень
национальных научных изданий на основании
решения Президиума Высшей аттестационной
комиссии при Министерстве высшего образования,
науки и инноваций Республики Узбекистан от 5
апреля 2025 года № 369.

**В журнале публикуются статьи по
следующим рубрикам:**

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное
предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и
аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик
(Южный федеральный университет, Россия)
Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор
(Белорусский национальный технический университет)
Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор,
(Кубанский государственный университет)
Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский
государственный университет)
Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик
(НААН Республика Казахстан)
Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор
(Таджикистанский аграрный университет им. Ш.
Шотемура)
Габдуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент
(Национальный исследовательский университет
«Московский энергетический институт»)
Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник
(Российского университета дружбы народов имени
П.Лумумби)
Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент
(Финансовый университет при Правительстве РФ)
Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент
(Финансовый университет Правительство РФ)
Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н.,
профессор (Национальная академия наук Республики
Таджикистан)
Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор
(Финансовый университет при Правительстве РФ)
Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский
государственный университет имени М.В. Ломоносова)
Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор
(Финансового университета Российской Федерации)
Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского
университета дружбы народов имени П. Лумумби)
Незаймакин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)
Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)
Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)
Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем
управления РАН)
Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский
экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор,
академик
Пардаев Мамаюнус Каршибоевич - д.э.н., профессор
Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор
Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор
Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор
Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор
Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент
Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор
Якубова Шамина Шухратовна - д.э.н., (DSc), доцент
Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент
Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Эрашиева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DSc), доцент
Бобокулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент
Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Джанузакон Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD),
доцент
Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)
Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)
Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)
Панджиев Самиджон Аликулич - PhD, доцент



Ekonometrika va statistika
Econometrics and statistics
Эконометрика и статистика



SAVDO TIZIMINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING EKONOMETRIK MODELLARINI ISHLAB CHIQUISH METODOLOGIYASI VA XORIJIY STRATEGIK YONDOSHUVLAR

Maxmatqulov G'olibjon Xolmuminovich

МЕТОДОЛОГИЯ РАЗРАБОТКИ ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИХ МОДЕЛЕЙ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ ТОРГОВОЙ СИСТЕМЫ И ВНЕШНИХ СТРАТЕГИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ

Махматкулов Голибжон Холмуминович

METHODOLOGY FOR DEVELOPING ECONOMETRIC MODELS OF INNOVATIVE DEVELOPMENT OF THE TRADE SYSTEM AND EXTERNAL STRATEGIC APPROACHES

Makhmatkulov Golibjon Kholmuminovich

Received: March 6, 2026 Revised: March 9, 2026 Accepted: March 13, 2026 Published: April 1, 2026

Annotatsiya: Maqolada savdo xizmatlarini rivojlantirishning ekonometrik modellarining metodologiyasi asoslangan. Bundan tashqari dunyo miqyosida savdo xizmatlarining yalpi ichki maxsulotdagi ulushi o'sish tendensiyasi, savdo xizmatlarini rivojlantirish bo'yicha olib borilgan xalqaro maydondagi ekonometrik tadqiqotlar o'rganilgan hamda savdo xizmatlarini innovatsion rivojlantirish yo'nalishlari sifatida farqlanishi ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Metodologiya, takomillashtirish, savdo xizmatlari, innovatsion rivojlantirish, xorijiy yondashuv, ekonometrik tadqiqotlar, model, strategiya, innovatsiya, ekonometrik model.

Аннотация: В статье используется методология эконометрических моделей развития торговых услуг. Кроме того, рассматривается глобальная тенденция роста доли торговых услуг в ВВП, международные эконометрические исследования развития торговых услуг, а также показана дифференциация торговых услуг как областей инновационного развития.

Ключевые слова: Методология, совершенствование, торговые услуги, инновационное развитие, зарубежный подход, эконометрическое исследование, модель, стратегия, инновации, эконометрическая модель.

Abstract: The article is based on the methodology of econometric models of trade services development. In addition, the global trend of growth of the share of trade services in GDP, international econometric studies on the development of trade services are studied, and the differentiation of trade services as areas of innovative development is shown.

Keywords: Methodology, improvement, trade services, innovative development, foreign approach, econometric research, model, strategy, innovation, econometric model.

■ KIRISH

Zamonaviy global iqtisodiyotda savdo tizimi milliy iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlaridan biri bo'lib, uning innovatsion rivojlanishi mamlakatlar

raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar, elektron savdo, logistika tizimlarining avtomatlashtirilishi, katta ma'lumotlar (Big Data) va sun'iy intellekt asosidagi



tahlil usullarining joriy etilishi savdo sohasida yangi boshqaruv mexanizmlarini shakllantirmoqda. Bunday sharoitda savdo tizimining rivojlanish jarayonlarini aniq baholash, istiqbolini prognozlash va boshqaruv qarorlarini optimallashtirishda ekonometrik modellar alohida ahamiyat kasb etadi.

■ ADABIYOTLAR TAHLILI

Porter M. innovatsion iqtisodiyotda raqobatbardoshlikni aniqlashda qiymat zanjiri tahlili va strategik innovatsiya boshqaruvi muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi. Savdo tizimi uchun qiymat zanjirini optimallashtirish logistika, marketing va xizmat sifati samaradorligini oshirish bilan bog'liq deydi.[1]

Kotler P. & Keller K., innovatsion marketing strategiyalarida raqamlashtirilgan savdo platformalarining o'sish modeli, iste'molchilarni segmentatsiya qilish va talabni prognozlashning statistik usullarini asoslab bergan.[2]

OECD hisobotlari elektron savdo, onlayn chakana savdo, transchegaraviy raqamli xizmatlar bozorining kengayishi savdo tizimining innovatsion rivojlanishiga kuchli ta'sir qilayotganini ko'rsatadi. Shuningdek, tadqiqotlarda innovatsion rivojlanishga investitsiyalar, raqamli infratuzilma, logistika samaradorligi global o'sishning asosiy omillari sifatida baholanadi.[3]

A.A. Abdug'aniyev, B.S. Xodjayev, Sh.X. Abdurahmonov savdo tizimini takomillashtirish, bozor mexanizmlarini rivojlantirish, raqamli savdo jarayonlarini boshqarishdagi iqtisodiy mexanizmlarni yoritgan.[4-5]

■ TADDIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolaning metodologiyasi savdo tizimini innovatsion rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlarini chuqur tahlil qilish, innovatsion omillarning savdo sektori samaradorligiga ta'sirini aniqlash va ilg'or xorijiy strategik yondashuvlarni ilmiy asoslashga qaratilgan.

■ TAHLIL VA NATIJALAR

Xizmatlar sohasi mustaqil iqtisodiyot tarmog'i sifatida YAIM dagi salmoqli tarkibiy ulushining o'zgarish tendensiyasida ma'lum darajadagi doimiy tebranishlar kuzatiladi. Faqat boshqa iqtisodiy tarmoqlaridan farqli holatda, tebranishlar stabil monoton markaziy o'qiga, ya'ni jahon miqyosida xizmatlar ulushining salmog'i juda mustahkam qiymatlanish chizig'iga ega. Bu saqlanish qonuniyati natijasida bu ko'rsatkichning qiymati hozirgi kunga kelib, dunyo bo'yicha 50 foizdan kam emas.

Jumladan, Jahon bankining so'nggi besh yillik tahlillariga ko'ra bu ko'rsatkich eng yuqori qiymatda, ya'ni 2017- yilda 93 foiz bilan kuhna portugallar koloniyasi Makaoda, 19 foizlik eng past ko'rsatkich bilan YAIM hajmining diyarli uchdan bir qismini qishloq xo'jaligi tarmog'iga to'g'ri keluvchi Yamanda kuzatilgan. O'rtacha hisobda dunyo bo'yicha 55 foizdan pastlamagan.

Dunyo miqyosida savdo xizmatlarining YAIMdagi ulushi o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, so'ngi besh yilda ushbu ko'rsatkich o'rtacha hisobda 22 foizdan 25 foizgacha oshdi. Tashqi savdo bo'yicha jahon bankining ma'lumotlariga ko'ra o'tgan asrning ikkinchi yarmida tovar va xizmatlar eksportining o'sish sur'ati YAIM o'rtacha o'sish sur'atidan 1,87 barobarga katta

bo'lgan bo'lsa, yangi asrning 1- va 2-yillar dekadasi bu ko'rsatkich o'rtacha 2,01 barobarga yetgan.

Xalqaro maydonda savdo xizmatlari tarmog'ining rivojlanish qonuniyatlarini, xususiyatlarini, optimal mohiyatini aniqlash, rivojlanishning sust xalqalarini mustahkamlash yo'nalishini belgilash, rivojlanish qonuniyatlariga o'zgartirish kiritish, global axborot oqimida asl rivojlanish kontentlarini joylashtirish, rivojlanish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha turli yo'nalishlarda ilmiy-amaliy tadqiqotlar uzluksiz, izchil ravishda bajarilgan va bajarilmoqda.

Savdo xizmatlarini rivojlantirish bo'yicha olib borilgan xalqaro maydondagi ekonometrik tadqiqotlar tarmoqdagi o'zgarishlar xususiyatiga chambarchas bog'langan bo'lib, bu xususiyatlarga ko'ra bir-biridan farqlanadi.

Yuqorida keltirilgan tarmoqning asosiy xususiyatlari sifatida quyidagilarni kiritish mumkin: - vaqt (davr) xususiyatiga ko'ra; rivojlanish evolyutsiyasiga ko'ra; texnik-texnologik xususiyatiga ko'ra; kutilgan va tasodifiy o'zgarish xususiyatiga ko'ra; ijtimoiy-iqtisodiy strukturaning o'zgarish xususiyatiga ko'ra tadqiqotlardir.

Davr xususiyatiga tadqiqotlar savdo xizmatlarining rivojlanish qonuniyatlarini tendensiya kuchli tebranishlar ostida yuz bergan davrlar bo'yicha aniqlashga yo'naltirilgan bo'ladi. Bunday tadqiqotlar ma'lum bir davrda muayyan bir iqtisodiyot tarmog'ining sezilarli o'sishi yoki kamayishi kuzatilgan mintaqa yoki mamlakatlar miqyosidagi tadqiq etilgan bo'ladi. Misol sifatida 1994-1996- yillarda AQSHda savdo xizmatlarining rivojlanish qonuniyatlari va omillarini tadqiq etgan ekonometrik tadqiqotlarni kiritishimiz mumkin

Rivojlanish evolyutsiyasiga ko'ra ma'lum bir iqtisodiyot tarmog'i bo'yicha gegemon mamlakatlarning iqtisodiy kulminatsiya jabhalari, boshqa iqtisodiy sektorlarining rivojiga asos bo'lgan asosiy sektor modellarini tadqiq etuvchi tadqiqotlarni kiritish mumkin. Misol uchun Litvaning xizmatlar sohasining o'ziga xos jihatlari eng asosiy o'rganiladigan obyekt sifatida ko'rilgan tadqiqotlarni keltirish mumkin.

Texnik-texnologik xususiyatiga ko'ra ekonometrik tadqiqotlarning so'nggi davrlardagi holati ko'proq rivojlanish omillari sifatida texnik-texnologik vositalarning tarmoqqa tadbiiq etilish samaradorligi bilan izohlanadi. Bunda logistik transport tizimining rivojlanishi, raqamli transformatsiyaning roli birlamchi o'ringa ko'tariladi. Mazkur jarayonlar ekonometrik tahliliga katta e'tibor qaratiladi. Ushbu tadqiqotlarga qit'alararo savdo tarmoqlarini shakllanishi, savdo xizmatlarida tovar va mahsulotlar import-eksportning optimallashtirish masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlarni keltirishimiz mumkin

G'arb olimlarining ekonometrik tadqiqotlarida ichki savdo bilan tashqi savdoning uyg'unlik tahlili ustunlik qiladi. Osiyo mamlakatlarida innovatsion yondashuvlar hamda Yevropa va Amerika mamlakatlarining amaliy tajribasining tadbiiq etilishi bilan kechadigan jarayonlar tadbiiq yetakchilik qilmoqda.

Jahon miqyosidagi barcha ekonometrik modellashtirish tadqiqotlari markazida muvaffaqiyatli



barqaror strategik rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish vazifalarini to'g'ri qo'yish, rivojlanayotgan mamlakatlarda xizmatlar sohalari, jumladan savdo xizmatlari samaradorligini oshirish va xizmatlar ko'lamini innovatsion kengaytirish, sifatini yaxshilash, rivojlanish imkoniyatlarini oshirish masalalarining optimal yechimini beruvchi mega, makro, mezo, mikro darajadagi modellashirish o'rin tutgan. Hozirgi modellashirishning xorijiy tajribasi ustuvor omillarning muvaffaqiyati albatta, mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasiga tayanishi, ularning darajada yetarlicha yuqori bo'lishini talab etishini xulosalamoqda. Shuningdek, so'ngi yillarda savdo tizimini rivojlantirishning eng maqbul yechimi sifatida innovatsion rivojlanish omillari yaqqol ustuvorlik kasb etmoqda. Shu sababli ham jahon mamlakatlari savdo xizmatlarini rivojlantirishda moliyaviy ochiqlik tizimining o'rnatilish tamoyillari, innovatsion axborot telekommunikatsion texnologiyalarining joriy etilish tamoyillari, transport xizmatlaridan foydalanish samaradorligini oshirish tamoyillari va ularning integratsiyalashuvi yetakchilik qilmoqda.

Ma'lumki, rivojlantirishning ekonometrik tadqiqotlarining natijalari haqqoniylik (reallik) darajasidan og'ishmasligi foydalanish uchun to'plangan ma'lumotlar aniqligiga, to'liqligiga, ishonchliligiga bevosita bog'liq, ya'ni modellashirishning axborot bazasi mutloq yetarli shakllantirilishi birlamchi talabdir. Savdo xizmatlarining mega, makro hududiy miqyosidagi tadqiqotlari ko'p hollarda panel ma'lumotlariga ehtiyoj


sezadi. Agar ular yetarlicha yoki umuman mavjud bo'lmaganda, axborot yig'ish ekspert faoliyati, hamda ularning tahlillari yordamida muammoni yechish mexanizmlari takomillashtirilmoqda.

Fikrimizcha, so'ngi yillarda ekonometrik olimlar tomonidan ilgari surilgan strategik yondoshuvlar, obyektning hozirgi va keyingi holatida aks ettiruvchi modelni "xavfsiz hudud"ga ko'chirish yordamida qurish tamoyiliga asoslanmoqda. Bunda, asosan ortga qaytmas jarayon omillariga, tabiiy holatda mavjudligi kafolatlangan omillarga, iqtisodiy rivojlanishning qa'tiy, o'zgarmas qonuniyatlari vujudga keltiradigan omillarga, bu omillarning miqdoriy o'lovchilari dinamikasiga va shu kabilarga e'tibor qaratiladi. Jumladan, hozirgi vaqtda savdo xizmatlarini innovatsion rivojlantirish tamoyiliga urg'u berilib, innovatsiyalar tarmoqni rivojlantirish strategiyasining ajralmas muhim qismiga aylanmoqda.

Xorij manbalarida keltirilgan ma'lumotlarga tayanilsa, va ularning umumiy holatidan savdo xizmatlarini innovatsion rivojlantirish yo'nalishlari sifatida quyidagilarni farqlash mumkin (1 -rasm).

Bu erda asosiy yo'nalishlar sifatida texnik, iqtisodiy, ijtimoiy yo'nalishlar farqlanadi.

Texnik yo'nalishda innovatsiya savdodagi elementlariga zamonaviy transport-logistik infratuzilma, internet savdoning rivojlanishi, tarmoqni avtomatlashtirish va robototexnologiyalarni joriy etish, o'z-o'ziga xizmatning yangi texnologiyalari hamda yangi mahsulotlar yaratish kabilarni qamrab olib ko'rinishi texnologik va axborot shaklida bo'ladi.



1-rasm. Savdo xizmatlarini innovatsion rivojlantirish yo'nalishlarining tarkiblanish sxemasi²⁵

Iqtisodiy yo'nalishda innovatsiyalar ko'rinishi tashkiliy-boshqaruv, iqtisodiy, marketing va axborot shaklida bo'lib, ularning savdodagi elementlariga yangi

xarid texnologiyasi, "Hamkor" marketing, IT texnologiyalari yordamida iqtisodiy o'sish zahiralarni aniqlash kabilar kiritiladi.

²⁵ Xorij manbalari asosida muallif ishlanmasi

<https://ojs.kstu.uz/index.php/ej>



Ijtimoiy yo'nalishda innovatsiyalar ko'rinishi ijtimoiy, marketing va axborot shaklida bo'lib, ularning savdodagi elementlari aholiga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish bilan bog'liq barcha innovatsion jihatlar, jumladan, yetkazib berish masofasini oshirish, aholining turli qatlami uchun maxsus xizmatni tashkil etish, aholiga qo'shimcha ijtimoiy xizmat ko'rsatish kabilarni qamrab oladi.

Xorij tajribasiga asoslanadigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasida, uning tarkibiy hududlarida, jumladan, Qashqadaryo viloyatida savdo xizmatlarini innovatsion rivojlantirish uchun avvalo, hududiy innovatsion rivojlanish salohiyatini, ichki salohiyatni tashkil etuvchi tarkibiy elementlarning tarmoqni rivojlantirishga ta'sirini baholash, innovatsion omillarning ta'sir darajasini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish, innovatsiyalar zamirida aholi turmush tarzini yaxshilaydigan parametrlarning o'sish tendensiyasini ta'minlovchi qonuniyatlarini aniqlash, xalqimiz milliy mentalitetiga, qadriyatlariga mos kelgan innovatsion texnologiyalarni, usullarni, vositalarni, g'oyalarni izchillik bilan o'zlashtirish zarur.

Haqiqatan, bugungi kunda savdo xizmatlarini innovatsion rivojlantirish xorijiy ilg'or strategik yondoshuvlarni, texnologiyalarni, usullarni, mexanizmlarni o'rinli vaqtda, o'rinli joyda o'zlashtirishni talab etadi.

Mintaqada savdo xizmati korxonalari aksariyatining elektron katalogi mavjud emas va internet savdo tizimlariga bog'lanmagan. Bu orqali aholi quyidagi qulayliklardan mahrum bo'lmoqda:

- iste'molchi o'zi turgan nuqtadan ma'lum bir radiusda qancha savdo korxonasi mavjudligini bilish;
- iste'molchi yaqin hududda (yoki ixtiyoriy) qaysi savdo mahsulotlarga ixtisoslashtirilgan qanday savdo korxonalari borligini bilish;
- iste'molchi yaqin hududda (yoki ixtiyoriy) savdo korxonalari ish rejimini, xizmat turini bilish;
- iste'molchi o'ziga kerakli tovarni ma'lum bir radiusdagi qaysi korxonada mavjudligini bilish;
- iste'molchi ehtiyoji ro'yxatidagi tovarlar narxini ma'lum radiusdagi savdo korxonalari taklifi kesimida bilishi;
- iste'molchi qisqa muddatda savdo korxonasiga bormasdan onlayn rejimda kerakli mahsulotlar uchun buyurtma paketini yaratish, to'lovni amalga oshirish, mahsulotni qabul qilish;
- iste'molchining xizmatni baholash huquqini amalga oshirish imkoniyati;
- iste'molchining yangi turdagi mahsulotlar haqida batafsil bilish imkoni va hokazolar.

Mazkur muammolarni yechish texnologiyasi juda oddiy bo'lib, uni bir qancha sodda funktsionallikka ega savdo tizimi elektron platformalarini ishga tushirish bilan izohlash mumkin. Bu platformalar sodda strukturali ammo ko'p funktsionallikka ega bo'lishi yagona talabdir.

Yuqoridagi mavjud muammolardan kelib chiqqan holda, tadqiqotimiz jarayonida mintaqaning innovatsion rivojlanish salohiyatini e'tiborga olib, xorijiy innovatsiyalarga tayangan holda mijoz-subyekt tamoyiliga asoslangan, hududiy Smart radius-internet savdo elektron platformasini tashkil etish g'oyasi ilgari surildi.

<https://ojs.kstu.uz/index.php/ej>

SRITEP (Smart radius-internet trading electronic platform) - Smart radius-internet savdo elektron platformasining axborot almashinuv modeli internet tizimi negizida ikki bug'inli tizimlashgan bog'lanishga ega. Xususan, 1-tizim bo'g'ini - bu foydalanuvchilarni geografik joylashuv koordinatalari tizimiga bog'lovchi hududiy aloqa tizimidir. 2-tizim bo'g'ini - bir necha sun'iy yo'ldosh negizida tashkil etilgan tashqi aloqa markaziga asoslangan geografik joylashuv koordinatalar tizimidir.

Sun'iy yo'ldoshli global navigatsion tizimi tashqi aloqa markaziga bog'langan bo'lib, butun yer sayyorasi kengligida joylashuv nuqtasini avtonomik tarzda aniqlaydi va geolokatsion belgilashlarni amalga oshiradi.

Har bir platformaning tasnifini uning tarkibiy foydalanuvchilari interfeysi orqali berish mumkin. SRITEP da ikki turdagi foydalanuvchi interfeysi farqlanadi va ular "Mijoz-subyekt" interfeysi sifatida yaxlit platforma interfeysini shakllantiradi. Bular iste'molchi aholi (mijoz) va savdo xizmatlari faoliyatini olib boruvchi subyektlar (subyekt) dan iborat. Jumladan, Mijoz interfeysi "Ro'yxatdan o'tish" va "Tashrif" bosh bloklariga, ularga bog'langan, mustaqil funktsiyali subbloklarga, hamda "Boshqa xizmatlarga o'tish" subinterfeysiga, subyekt interfeysi "Ro'yxatdan o'tish" va "Qabul" bosh bloklariga, ularga bog'langan, mustaqil funktsiyali subbloklarga, hamda "Boshqa xizmatlar taklifi" subinterfeysiga ega. Ko'rish mumkinki, SRITEP ning "Mijoz-subyekt" interfeysi sodda ko'rinishda bo'lib, bu foydalanuvchilar uchun qulaylik darajasini, shuningdek, platformaning sodda interfeysi bilan birgalikda ko'p funktsionallik xususiyati uning ahamiyatini oshiradi. Fikrimizcha, bu kabi platformalarni axborot to'liqligini, umuman yuqori sifat darajasini ta'minlash maqsadida mintaqaviy yoki kichik hududiy (shahar, tuman) miqyosida joriy etilishi maqsadga muvofiq.

■ XULOSA VA TAKLIFLAR

Mintaqada savdo korxonalarining raqobatbardoshligini tashxislash, sog'lom raqobat muhitini yaratishning innovatsion mezonlarni asoslash uslubiyotini takomillashtirish zarur. Mazkur holatda, mintaqada savdo korxonalari innovatsion faoliyatining samaradorlik indeksini hisoblashning takomillashgan modelini, uni hisoblash usulining algoritmini ishlab chiqish zarur.

Ilg'or xorij tajribasiga ko'ra, Qashqadaryo viloyatida savdo tizimlarini innovatsion rivojlantirishda innovatsion omillarning ta'sir darajasini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish uchun, avvalo, savdoda innovatsiya elementlari tushunchasini ilmiy tavsiflash lozim. Bizningcha, savdo xizmatlarini innovatsion rivojlantirish yo'nalishlarining texnik, iqtisodiy, ijtimoiy tarkiblanishiga ko'ra innovatsiya elementlarini farqlash kerak.

Muallif (lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Maxmatqulov G'olibjon Xolmuminovich
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti dotsenti /
Махматкулов Голибжон Холмуминович, доцент



Университета экономики и педагогики /
Makhmatkulov Golibjon Kholmuminovich, Associate
Professor of the University of Economics and Pedagogy
E-mail: golibmaxmatqulov@gmail.com
ORCID: 0000-0003-3717-172X

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.Porter, M. *Competitive Strategy: Techniques for Analyzing Industries and Competitors*. Harvard Business Review Press.2024
- 2.Kotler, P., & Keller, K. *Marketing Management* (15th ed.). Pearson Education.
- 3.OECD. (2020–2024). *Digital Economy Outlook*. OECD Publishing.
- 4.Abdug'aniyev, A.A. (2020). *Savdo tizimini boshqarishning innovatsion mexanizmlari*. TDIU nashriyoti.
- 5.Xodjayev, B.S. Elektron tijoratni rivojlantirishning iqtisodiy asoslari. *Iqtisodiyot va Innovatsion Texnologiyalar*, 2021. 3(2), 34–42.
- 6.Lee, J., & Kim, S.. Digital Transformation and Retail Innovation in Korea. *Asian Journal of Technology Innovation*, 2018. 26(2), 231–245.
- 7.Maxmatkulov, G'. (2022). *Aholiga savdo xizmatlarini innovatsion rivojlantirish salohiyatini baholashda trend modellarini tanlash mezonlari (qashqadaryo viloyati misolida)*. *Iqtisodiyot va ta'lim*, 23(4), 381–386.
- 8.Maxmatqulov, G. X. (2023). *Savdo xizmatlarini innovatsion rivojlantirishning zamonaviy uslubiy yondoshuvlari*. *Innovative Development in Educational Activities*, 2 (9), 378–386.
- 9.Maxmatqulov, G'. (2023). Savdo korxonalarining innovatsion faoliyatini ekonometrik modellashtirish. *Iqtisodiyot va ta'lim*, 24(6), 33–38.
- 10.Kh, G. (2022). Makhmatkulov. Econometric modeling of innovative activities of trading enterprises in a healthy competitive environment. *Экономика и предпринимательство*, 8, 144.
- 11.Maxmatkulov G., Sayfullayev S., & Bobomirzayev A. (2024). *эконометрический анализ основных показателей развития торговых услуг. Экономическое развитие и анализ*, 2(4), 139–149. [извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/eitt/article/view/45201](https://inlibrary.uz/index.php/eitt/article/view/45201)
- 12.Reinhard Hujer et al. Econometric analysis of financial trade processes by discrete mixture duration models. *Journal of Economic Dynamics and Control*. Volume 31, Issue 2, February 2007, Pages 635–667
- 13.Neringa Langviniene and Gelminė Sliziene. Management of sustainable transport and logistics services sector's growth in the context of Lithuanian economic development. *Procedia - Social and Behavioral Sciences* 156 (2014) 18–
- 14.Christian G. et al. (2021). Digitalization, retail trade and monetary policy. *Journal of International Money and Finance*. №112
- 15.http://web.worldbank.org/archive/website01558/WEB/IMAGES/WNR_13.PDF
16. Raximov , A. N. (2024). RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SANOAT TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 43–48. Retrieved from <https://sjii.es/index.php/journal/article/view/68>
17. Mukhitdinov, K. S., & Rakhimov, A. N. (2020). The forecast for the development of the public services sector. *Scopus. Solid State Technology*, 63(6), 12.
18. Рахимов, А., & Эшонкулов, Ж. (2022). Саноат корхоналарида ишлаб чиқаришнинг иқтисодий қувватини ошириш механизми. *Iqtisodiyot va ta'lim*, 23(6), 390–395.



INNOVATION
IQTISODIYOT
ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

ISSN: 3030-315X



t.me/kstu_uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225



www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz